

**MIKROQARZ/MIKROKREDIT/KREDIT TAQDIM ETISH TO'G'RISIDAGI
SHARTNOMA (keraklisi tanlansin)**

№ _____

__Toshkent sh. _____

_____20__y.

Bundan buyon “MMT” deb yuritiladigan, _____ asosida faoliyat ko'rsatuvchi nomidan **“AGAT CREDIT” AJ MMT**, bir tomondan, va **bundan buyon “Qarz oluvchi” deb yuritiladigan,** shaxsini tasdiqlovchi _____ hujjati (JSHSHIR _____) asosida faoliyat ko'rsatuvchi _____, ikkinchi tomondan, birgalikda “Tomonlar” deb yuritiladilar, quyidagilar to'g'risida mazkur mikroqarz/mikrokredit/kredit taqdim etish shartnomasini **(keraklisi tanlansin)** (bundan buyon – “Shartnoma”) tuzdilar:

1. ASOSIY TUSHUNCHALAR

1.1. Agar matndan boshqacha ma'no anglashilmasa, mazkur Shartnoma matnida keyinchalik uchraydigan barcha atamalar ushbu bo'limda berilgan ta'riflarga ega bo'ladi:

1.1.1. Mikroqarz/Mikrokredit/Kredit (keraklisi tanlansin) — (bundan buyon – “Kredit” deb yuritiladi) — Qarz oluvchiga to'lovlik, muddatlik, qaytarishlik va ta'minlanganlik shartlarida ma'lum pul summasi shaklida taqdim etiladigan kredit mahsuloti.

1.1.2. Qarz oluvchi – kredit olgan hamda uni qaytarish, u bo'yicha foizlar va boshqa to'lovlarni to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oluvchi jismoniy shaxs yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs yoxud o'zini o'zi band qilgan shaxs.

1.1.3. To'lovga layoqatlilik — Qarz oluvchining jami daromadlari tahlilidan kelib chiqib aniqlanadigan, mazkur Shartnoma bo'yicha o'z to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyati;

1.1.4. To'lov majburiyatlari — Qarz oluvchining ushbu Shartnoma bo'yicha qarzni, unga hisoblangan foizlarni va boshqa to'lovlarni (garovni rasmiylashtirish xarajatlarini) ushbu Shartnomada ko'rsatilgan miqdorda va muddatlarda to'lash majburiyatlari;

1.1.5. Kredit ta'minoti/Garov predmeti – ushbu Shartnomaning 5-bo'limida belgilangan.

1.1.6. Kredit berilgan sana – MMT tomonidan pul mablag'larining Qarz oluvchining ssuda hisobvarag'idan uning milliy valyutadagi hisobvarag'iga/debet bank kartasiga o'tkazilgan sana yoki MMT kassasidan pul mablag'lari berilgan sana.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. MMT Qarz oluvchiga uning shaxsiy ehtiyojlari uchun ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq Kredit ajratadi, Qarz oluvchi esa olingan kreditni MMTga qaytarish va undan foydalanganlik uchun foizlarni ushbu Shartnoma shartlarida to'lash majburiyatini oladi.

2.2. Kredit MMT tomonidan Qarz oluvchining arizasiga asosan naqd pulsiz shaklda uning milliy valyutadagi hisobvarag'iga/debet bank kartasiga o'tkazish yo'li bilan yoki Qarz oluvchiga MMT kassasidan naqd pul mablag'larini berish orqali taqdim etiladi.

3. KREDIT AJRATISH SHARTLARI

3.1. Kredit Qarz oluvchining MMTni qanoatlantiradigan shakldagi arizasi asosida quyidagi shartlarda beriladi:

3.1.1. Kredit summasi: _____ (so'z bilan summa _____ tiyin) so'm;

3.1.2. Kreditlash muddati: _____ oy;

3.1.3. Oxirgi transhni to'lash sanasi: _____ y.gacha;

3.1.4. Foizlarni to'lash muddati: har oyning 10 (o'ninchi) sanasidan kechiktirmay;

3.1.5. Kredit qarzдорligini to'lash jadvalini hisoblash: annuitet usulida.

3.2. Kredit bo'yicha to'lovlar:

3.2.1. Foiz stavkalari:

- a) asosiy qarz qoldig'iga – yillik ____ %;
- b) muddati o'tgan qarzдорlikka – asosiy qarz qoldig'iga nisbatan foiz stavkasi 1,5 baravarga oshirilgan holda.

3.3. MMT Qarz oluvchining olgan kreditini hisobga olish uchun unga ssuda hisobvarag'i ochadi.

3.4. Kredit mablag'lari Shartnoma tuzilganidan va Shartnomaning 5-bo'limiga muvofiq qaytariluvchanlik, to'lovga layoqatlilik, ta'minlanganlikni tasdiqlovchi ma'lumotlar to'liq olinganidan/belgilangan tartibda rasmiylashtirilganidan va Shartnoma bo'yicha boshqa shartlar bajarilganidan so'ng 3 (uch) ish kuni ichida Qarz oluvchining milliy valyutadagi hisobvarag'iga / debet bank kartasiga o'tkazib beriladi yoxud MMT kassasi orqali naqd pulda beriladi.

3.5. Kredit, 2.2-bandga muvofiq, pul mablag'lari Qarz oluvchining ssuda hisobvarag'idan uning hisobvarag'iga / milliy valyutadagi debet bank kartasiga o'tkazilgan sanadan yoki MMT kassalari orqali naqd shaklda berilgan sanadan boshlab taqdim etilgan deb hisoblanadi va Qarz oluvchi tomonidan qarzning butun summasi hamda kredit bo'yicha hisoblangan barcha turdagi foizlar to'langan kuni qaytarilgan deb hisoblanadi.

3.6. Kreditdan foydalanganlik uchun foizlar kredit taqdim etilgan kundan boshlab har kuni asosiy qarz bo'yicha qoldiqqa nisbatan ish kuni oxirida, bir yilda 365 kun va har bir oydagi kunlarning haqiqiy sonidan kelib chiqqan holda, kredit to'liq qaytarilguniga qadar hisoblanadi.

4. KREDITNI QAYTARISH SHARTLARI

4.1. Qarz oluvchi yoki uning ishonchli vakili ushbu Shartnoma bo'yicha hisoblangan foizlar summasi, asosiy qarzning bir qismi va boshqa to'lovlarni o'z ichiga olgan oylik to'lovlarni MMTning istalgan ofislarida, shuningdek, banklarning mobil ilovalari, to'lov terminallari (infokiosklar), to'lov tizimlari orqali, bank o'tkazmasini amalga oshirish, MMT yoki boshqa banklarning kassalari orqali yoxud MMT tomonidan Qarz oluvchining O'zbekiston Respublikasi banklarida ochilgan barcha hisobvaraqlaridan tegishli summani hisobdan chiqarish yo'li bilan to'lashi mumkin.

4.2. Qarz oluvchi kredit bo'yicha hisoblangan foizlarni va asosiy qarz summasini har oy Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan Kreditni qaytarish jadvalida (Shartnomaga 1-ilova) ko'rsatilgan miqdorlarda va muddatlarda to'lash majburiyatini oladi. Bunda, 1-ilovadagi Kreditni qaytarish jadvalida ko'rsatilgan, kredit uchun to'lanadigan hisoblangan foizlarning oylik summasi yakuniy hisoblanmaydi va kreditning haqiqatda berilgan sanasiga, asosiy qarzning muddatidan oldin yoki qisman to'langan summasiga, dam olish/ishlanmaydigan va bayram kunlariga bog'liq bo'ladi.

4.3. Shartnoma bo'yicha qarzni muddatidan oldin qisman to'lash Qarz oluvchining Shartnoma bo'yicha to'lovlari soni, miqdorini aniqlash tartibi va davriyligining (muddatlarining) o'zgarishiga olib kelmaydi.

4.4. Qarz oluvchi kreditni muddatidan oldin to'lagan taqdirda, MMT tomonidan ushbu to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- to'lov kuniga hisoblangan foizlar qoldig'i;
- asosiy qarz summasining qoldig'i.

Bunda dastlabki to'lovlar jadvali kreditni qaytarish sanasi o'zgartirilmagan holda, asosiy qarz qoldig'idan annuitet usulida qayta hisoblab chiqiladi va Shartnomaning 1-ilovasi kreditning oylik to'lov summasiga doir qismida o'z kuchini yo'qotadi. Qarz oluvchi kreditni qaytarishning amaldagi jadvalini MMT veb-saytidan yoki MMT ofislaridan olishi mumkin.

Kreditning Shartnomaning 1-ilovasiga muvofiq belgilangan navbatdagi to'lov kunidan boshqa bir kunda qisman muddatidan oldin qaytarilishi Qarz oluvchini navbatdagi to'lovni belgilangan kunda to'lash majburiyatidan ozod etmaydi. Agarda Qarz oluvchidan kredit bo'yicha joriy to'lov uchun To'lovlar jadvalida ko'rsatilganidan ko'proq pul mablag'lari kelib tushsa,

MMT ortiqcha kelib tushgan mablag'larni Qarz oluvchining krediti bo'yicha asosiy qarzni so'ndirishga yo'naltiradi va kredit summasini qayta hisob-kitob qiladi.

Har oylik to'lov kunida Qarz oluvchi kreditni so'ndirish uchun o'z hisobvarag'i/kartasida zarur miqdordagi pul mablag'larini shakllantirishi yoki kreditni mobil ilovalar, to'lov terminallari (infokiosklar), to'lov tizimlari orqali, bank o'tkazmasini amalga oshirish yo'li bilan yoxud MMT yoki boshqa banklarning kassalari orqali to'lashi shart.

Bunda, agar kreditning amalda berilish sanasi mazkur Shartnoma tuzilgan sanadan keyinroqqa to'g'ri kelsa, mazkur Shartnomaga qo'shimcha kelishuvlar tuzish hamda kreditni qaytarish jadvali/muddatli majburiyat bo'yicha yangi ilovalarni rasmiylashtirish talab qilinmaydi.

4.5. Agar Shartnomaning 1-ilovasi hisoblangan Kreditni qaytarish jadvalida nazarda tutilgan asosiy qarz va hisoblangan foizlarni (yoki uning bir qismini) so'ndirish sanasi bank ish kuniga to'g'ri kelmasa, u holda to'lov dam olish/bayram kunidan keyingi birinchi ish kuniga ko'chiriladi va oylik to'lov hamda dam olish kunlari soni miqdorida amalga oshiriladi (dam olish/bayram kunlari uchun foizlar to'lov summasiga kiritiladi va keyingi to'lovdan chiqarib tashlanadi).

4.6. Agar Qarz oluvchi Shartnomaning 4.5-bandini inobatga olgan holda, ushbu Shartnomaning 1-ilovasida nazarda tutilgan sanada kredit bo'yicha asosiy qarzni so'ndirmasa, Qarz oluvchi MMTga Shartnomaning 3.2.1-bandi "b" kichik bandiga muvofiq, muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun oshirilgan stavkada foiz to'laydi.

4.7. Qarz oluvchining asosiy qarz bo'yicha qarzini so'ndirish va kredit bo'yicha hisoblangan foizlarni to'lash uchun zarur bo'lgan pul mablag'lari uning tegishli hisobvaraqlarida mavjud bo'lmagan taqdirda, yetishmayotgan pul mablag'lari qismi muddati o'tkazib yuborilgan qarz deb hisoblanadi.

4.8. Qarz oluvchining majburiyatlari MMTga butun kredit summasi qaytarilganidan, kreditdan foydalanganlik uchun foizlar, kreditni o'z vaqtida so'ndirmaganlik uchun muddati o'tgan foizlar, kreditni so'ndirish sanasida belgilanadigan ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq jarimalar to'langanidan va qarzni undirish bilan bog'liq xarajatlar qoplanganidan so'ngina tegishli tarzda va to'liq bajarilgan deb hisoblanadi.

4.9. Kreditni qoplash hisobidan kelib tushgan yoki Qarz oluvchining O'zbekiston Respublikasi Banklaridagi har qanday hisobvaraqlarida mavjud bo'lgan pul mablag'lari qarzдорlikni qoplashga quyidagi navbatga muvofiq yo'naltiriladi yoki o'tkaziladi:

- asosiy qarz bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzдорlik va muddati o'tkazib yuborilgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;
- joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzдорlik;
- neustoyka (jarima, penya);
- MMTning qarzдорlikni qoplash bilan bog'liq boshqa xarajatlari.

5. KREDIT QAYTARILISHINING TA'MINOTI

5.1. Kredit qaytarilishining ta'minoti sifatida quyidagilar qabul qilinadi: (keraklisini tanlang)

- MMT tomonidan belgilangan tartibda butun kreditlash muddatiga rasmiylashtirilgan, kredit summasining kamida _____ foizini tashkil etuvchi (So'z bilan _____ so'm _____ tiyin) so'm miqdoridagi sug'urta kompaniyasining kreditni qaytarmaslik xavfini sug'urtalash polisi. Sug'urta hodisasi yuz berganda MMT foyda oluvchi hisoblanadi

- Tomonlar tomonidan tegishli Garov predmeti qiymatini kelishish dalolatnomasida kelishilgan va kredit summasining kamida _____ foizini tashkil etuvchi (So'z bilan _____ so'm _____ tiyin) so'm miqdoridagi garov qiymatiga ega ko'chmas mulk garovi.

Tomonlar tomonidan tegishli Mol-mulk qiymatini kelishish dalolatnomasida kelishilgan va kredit summasining kamida _____ foizini tashkil etuvchi _____ (So'z

bilan _____ so'm _____ tiyin) so'm miqdoridagi garov qiymatiga ega ko'char mol-mulk garovi.

- _____ ATBdagi _____-sonli maxsus hisobvaraqa joylashtirilgan _____ so'm miqdoridagi pul mablag'lari garovi.

- Qarz oluvchi/Garovga qo'yuvchiga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan, _____ manzilida joylashgan _____ ko'rinishidagi muomaladagi tovarlar garovi. Garov qiymati MMT va Qarz oluvchi/Garovga qo'yuvchi o'rtasida imzolangan 202__-yil "____" _____dagi ____-sonli garovga qo'yilayotgan mol-mulk qiymatini kelishish dalolatnomasiga muvofiq _____ (so'z bilan) so'm etib belgilangan ro'yxat hamda kelishilgan qiymat asosida aniqlanadi.

Kredit summasining kamida _____ foizini tashkil etuvchi _____ (so'z bilan _____ so'm _____ tiyin) so'm miqdorida jismoniy shaxs _____ (F.I.Sh.)ning kafilligi. Kafillik kreditlashning butun muddati uchun MMT tomonidan belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

MMT tomonidan sug'urta mukofoti MMT mablag'lari hisobidan to'langan taqdirda, Qarz oluvchi MMTga sug'urta mukofoti summasini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq Qarz oluvchining farmoyishsiz (akseptisiz tartibda) hisobdan chiqarish huquqini taqdim etadi.

5.2. Kreditning qaytarilishini ta'minlash bo'yicha hujjatlarni tegishli tarzda rasmiylashtirish bilan bog'liq har qanday xarajatlarni, jumladan, sug'urta mukofotlarini to'lashni Qarz oluvchi o'z zimmasiga oladi.

5.3. Agar Qarz oluvchi 6.4-bandning shartlarini bajarmasa va ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan asosiy qarz, foizlar va/yoki kredit bo'yicha boshqa to'lovlarni Shartnomada belgilangan sanada to'lay olmasa, MMT Shartnomaning 5.1-bandida ko'rsatilgan Garov predmetiga undiruvni qaratish bo'yicha so'zsiz va qaytarib olinmaydigan huquqni hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq berilgan kreditni muddatidan oldin undirib olish huquqini qo'lga kiritadi.

5.4. Qarz oluvchi ushbu shartnoma bo'yicha kredit qarzini to'lash majburiyatini to'liq bajargan sanadan e'tiboran MMT kechi bilan 3 (uch) ish kuni ichida ushbu kredit yuzasidan quyidagilarni bajarishga majburdir:

- garovga qo'yilgan mol-mulkdagi taqiqni bekor qilish (notariusga yoki boshqa tashkilotga yozma ma'lumotnoma taqdim etish yo'li bilan);

- Garov reyestridan MMTning garovdagi mol-mulkka bo'lgan huquqlari to'g'risidagi yozuvni chiqarib tashlash.

5.5. Agar Garov shartnomasi notarial tasdiqlangan bo'lsa, MMT Qarz oluvchining xohishiga ko'ra garovga qo'yilgan mol-mulkdagi taqiqni (cheklashni) bekor qilish tartib-taomilini elektron shaklda mustaqil amalga oshirishi mumkin. Taqiqni bekor qilish bo'yicha ushbu tartib-taomil elektron shaklda amalga oshirilgan taqdirda, Qarz oluvchi taqiqni elektron tarzda bekor qilish uchun MMT tomonidan qilingan xarajatlarni o'sha kunning o'zida qoplash majburiyatini oladi.

5.6. Ushbu Shartnoma bo'yicha qabul qilingan garov ta'minotiga undiruv qaratilganda, MMT birinchi navbatda undirish uchun predmetni o'z xohishiga ko'ra bir tomonlama tartibda tanlash huquqini o'zida saqlab qoladi. Undiruv obyektlaridan biriga undiruvning qaratilishi MMTning boshqa obyektga (obyektlarga) undiruv qaratish huquqini cheklamaydi.

5.7. Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarining bajarilishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan o'ziga tegishli mol-mulki bilan javobgar bo'ladi.

5.8. Fuqarolik kodeksining 282-moddasida nazarda tutilgan hollarda va/yoki Garovga qo'yuvchi o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, Garov tutuvchi Garov predmetiga undiruvni muddatidan oldin qaratishga haqli.

5.9. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 280-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq, shartnomada belgilangan majburiyatlar bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan

taqdirda, Qarz oluvchi MMTning talabini sudga murojaat qilmasdan garovga qo'yilgan mol-mulk hisobidan qanoatlantirishga haqli.

5.10. MMT garov predmetiga undiruvni notarial ijro yozuvi asosida qaratishga, shuningdek, garov predmetini va/yoki uning bir qismini o'z xohishiga ko'ra MMT buyurtmasi asosida "E-auksion" elektron savdo platformasidagi mulkni sotish bo'yicha auksion savdolariga qo'yishga yoxud O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq garov predmetini sotishning boshqa usullaridan foydalanishga haqli. Garov predmetiga undiruv notarial ijro yozuvini olish yo'li bilan qaratilganda, Tomonlar notarial ijro yozuvining haqiqiylikini so'zsiz tan oladilar, shuningdek, MMTning notarial ijro yozuvi asosida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi tomonidan "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq garov predmetini xatlash va majburan sotish orqali undiruvni majburiy ijro etishga haqli ekanligini tan oladilar.

5.11. Ushbu Shartnomaning 5.10-bandi maqsadlarida Qarz oluvchi MMT talab qiladigan darajada barcha ruxsatnomalarni, ma'qullashlarni taqdim etishga va notarial ijro yozuvini olishda ko'maklashishga, shuningdek, Qarz oluvchi tomonidan "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq notarial ijro yozuvi asosida garov predmetini majburiy sotishga oid tuzilishi yoki rasmiylashtirilishi mumkin bo'lgan barcha zarur choralarni ko'rishga hamda barcha zarur hujjatlarni rasmiylashtirishga majburdir.

5.12. Yuqorida aytilganlarga qaramay, MMT undiruvni Garov predmetiga qaratish to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat qilishga haqli. Bunday holda, agar MMT Garov predmetiga undiruvni qaratish yoki uni sotish Tomonlarning undiruvni suddan tashqari tartibda undirish to'g'risidagi kelishuviga muvofiq Qarz oluvchi yoxud uchinchi shaxslarning harakatlari sababli amalga oshirilmaganini isbotlasa, Garov predmetiga sud tartibida undiruvni qaratish bilan bog'liq qo'shimcha xarajalar Qarz oluvchining zimmasiga yuklatiladi.

5.13. MMT Qarz oluvchi tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi haqida uni xabardor qilgan kundan e'tiboran 10 (o'n) kalendar kun ichida Garov predmetini qonunchilikda belgilangan tartibda kelishilgan qiymat bo'yicha sotishga haqli.

5.14. Qarz oluvchi MMTning Garov predmetini sotish niyati to'g'risidagi xabarnomasini olgan kundan boshlab 2 (ikki) kalendar kun ichida barcha zarur choralarni ko'radi, jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda, MMTga Garov predmetini va unga tegishli hujjatlarni, kalitlar va uskunalarini taqdim etadi, Garov predmetidagi cheklovlarni bekor qiladi va hokazo.

6. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. MMT quyidagi huquqlarga ega:

6.1.1. Qarz oluvchi kreditning qaytarilishini ta'minlash bo'yicha majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, unga kredit berishni to'liq yoki qisman rad etish.

6.1.2. Ushbu Shartnomaning amal qilish muddati davomida Qarz oluvchining daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida uning to'lovga layoqatlilikini tekshirish yuzasidan tegishli monitoringni amalga oshirish. Bunday tekshiruvlarni o'tkazish davriyligi MMT tomonidan belgilanadi.

6.1.3. MMT quyidagi hollarda Qarz oluvchidan kreditni (hisoblangan foizlarni hisobga olgan holda) muddatidan oldin qaytarishni talab qilish va uni kelgusida berishni to'xtatish huquqiga ega:

- a) Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini buzgan, bajarmagan va/yoki lozim darajada bajarmagan hollarda;
- b) agar Qarz oluvchi kredit olish uchun MMTga kredit berish to'g'risida qaror qabul qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan masalalar yuzasidan yolg'on yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlarni taqdim etgan bo'lsa;
- c) ushbu shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan asosiy qarz, foizlar, komissiyalar va/yoki kredit bo'yicha boshqa to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganda;

d) Qarz oluvchi to'lov muddatlari kelganda asosiy qarzni to'lash va foizlarni to'lash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmasa va/yoki lozim darajada bajarmasa, MMT O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq zarur pul mablag'larini Qarz oluvchining farmoyishsiz (akseptsiz tartibda) hisobdan yechib olish huquqini o'zida saqlab qoladi. Shu bilan Qarz oluvchi MMTga O'zbekiston Respublikasining istalgan banklarida ochilgan Qarz oluvchi/Kafilning barcha hisobvaraqlaridan ushbu Shartnoma bo'yicha undan undirilishi lozim bo'lgan tegishli pul mablag'larini uning farmoyishsiz akseptsiz tartibda yechib olish uchun so'zsiz va qaytarib olinmaydigan huquqni taqdim etadi. Yechib olish jarayoni operator (uchinchi shaxs) orqali amalga oshirilishi mumkin, bunda Qarz oluvchi ushbu xizmat uchun operator tomonidan undiriladigan 2,7 % gacha miqdordagi komissiya haqini to'lashga rozi bo'ladi. Ushbu komissiya haqi asosiy qarz, foizlar yoki boshqa shartnomaviy to'lovlar summasiga kiritilmaydi va alohida tartibda undiriladi;

e) ushbu Shartnomada va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

6.1.4. MMTning ushbu Shartnomaning 6.1.3-bandida ko'rsatilgan talablari bajarilmagan taqdirda, MMT ushbu Shartnoma shartlariga asosan undiruvni kredit qaytarilishining ta'minotiga va Qarz oluvchining boshqa mol-mulkiga qaratish huquqiga ega bo'ladi.

6.1.5. Kredit byurosiga ushbu Shartnoma shartlari, kredit qaytarilishining ta'minoti hamda Qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishi yuzasidan ma'lumotlarni taqdim etish.

6.1.6. Ushbu Shartnoma bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan summalarni Qarz oluvchi/Kafilning O'zbekiston Respublikasi banklaridagi barcha hisobvaraqlari va bank kartalaridan akseptsiz tartibda hisobdan chiqarish.

6.1.7. Qarz oluvchiga uning ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarganligi/bajarmaganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni, ushbu Shartnoma bilan bog'liq boshqa axborotni, shuningdek, MMTning axborot-reklama materiallari va tijoriy takliflarini Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnomada ko'rsatilgan manzillarga/telefon raqamlariga pochta jo'natmalari, elektron aloqa vositalari, SMS-xabarlar orqali yoki boshqa usulda yuborish. Yuborilgan xat-xabarlar uchinchi shaxslar qo'lga tushishi bilan bog'liq barcha xatarlarni Qarz oluvchi o'z zimmasiga oladi.

6.1.8. Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlarini Qarz oluvchidan va istalgan uchinchi shaxslardan yig'ish (olish) hamda ularga ishlov berish, shuningdek Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga, shu jumladan davlat va nodavlat ma'lumotlar bazalariga, moliya institutlariga, ma'lumotlar bazalari operatorlariga o'tkazish, moliya institutlari tomonidan esa barcha davlat va nodavlat ma'lumotlar bazalaridan to'g'ridan-to'g'ri yoki uchinchi shaxslar orqali olish, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda xalqaro huquq (xalqaro shartnomalar) talablarini inobatga olgan holda shaxsiy ma'lumotlarni umuMMTydalanishdagi manbalarda tarqatish;

6.1.9. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan hollarda, shu jumladan qarzni undirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan har qanday tadbirlarni o'tkazish maqsadida boshqa banklar va/yoki tashkilotlarda Qarz oluvchining rozilgisiz uning shaxsiy ma'lumotlarini to'plash va ularga ishlov berish;

6.1.10. Agar Qarz oluvchi (Qarz oluvchining vakili) va MMT o'rtasida tuzilgan tegishli shartnoma(lar)da Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlarini MMTga ochiq aloqa kanallari orqali (shu jumladan transchegaraviy tarzda) uzatish nazarda tutilgan bo'lsa / tutilsa, Qarz oluvchi ma'lumotlarning uchinchi shaxslar tomonidan ruxsatsiz olinishi xavfini anglaydi va bunday xavfni o'z zimmasiga oladi;

6.1.11. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda, Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlari bilan har qanday harakatni (operatsiyani) yoki bunday harakatlar (operatsiyalar) majmuini, jumladan, avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki ulardan foydalanmasdan amalga oshirish, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmasdan,

ma'lumotlarni yig'ish, ularga ishlov berish, yozib olish, nusxa ko'chirish, zaxira nusxalarini yaratish, himoya qilish, skrining, scoring, tizimlashtirish, to'plash, MMT ichida va undan tashqarida saqlash (xavfsizlik va maxfiylik talablariga rioya qilgan holda), aniqlashtirish (o'zgartirish, yangilash), chiqarib olish, foydalanish, uzatish (tarqatish, kirish huquqini berish, shu jumladan, Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish huquqi bilan uchinchi shaxslarga uzatish), shaxssizlantirish, bloklash, o'chirish, yo'q qilish, jumladan, agar bu O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga zid kelmasa, ushbu harakatlarni MMTning topshirig'iga binoan uchinchi shaxs tomonidan amalga oshirilishini ta'minlash;

6.1.12. Qarz oluvchini MMT tomonidan uchinchi shaxslardan shaxsiy ma'lumotlar olinganligi va/yoki MMT tomonidan Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlari uchinchi shaxslarga uzatilganligi to'g'risida xabardor qilish talab etilmaydi, bunday shaxsiy ma'lumotlar MMT tomonidan Qarz oluvchini xabardor qilmasdan to'planishi, qayta ishlanishi va uzatilishi mumkin.

6.1.13. Kredit byurosidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, Qarz oluvchining kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi mavjud bo'lgan taqdirda, Qarz oluvchini 5 (besh) kun oldin xabardor qilish sharti bilan Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish va kredit ajratishni rad etish;

6.1.14. Kredit byurosi tomonidan Qarz oluvchi kredit shartnomalarini tuzish taqiqlangan jismoniy shaxslar reestriga kiritilgan taqdirda, kreditni tasdiqlashni rad etish.

6.1.15. Qarz oluvchi tomonidan firibgarlik yoki tovlamachilikka shubha tug'ilgan taqdirda, Qarz oluvchiga xizmatlar ko'rsatishni to'xtatib turish, kredit summasini yechib olish va undiruvni garovga qaratish.

6.1.16. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va ommaviy qirg'in qurollari tarqatilishini moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida, MMT Qarz oluvchini identifikatsiya qilish hamda hisobvaraqlar bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlash imkonini beruvchi ma'lumot va hujjatlarni taqdim etishni Qarz oluvchidan talab qilishga haqli.

6.1.17. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ushbu shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish va undiruvni garov predmetiga qaratish.

6.1.18. MMT vijdonlilik va shaffoflik tamoyillariga muvofiq hamda amaldagi qonunchilik doirasida, ushbu Shartnomaning butun amal qilish muddati davomida Qarz oluvchining Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarish qobiliyatini nazorat qilish maqsadida uning faoliyatini tekshirish (nazorat qilish) huquqiga ega. Tomonlar tekshiruv deganda Qarz oluvchi o'z faoliyatida foydalanadigan obyektlarni (shu jumladan, agar mavjud bo'lsa, ofis, omborxona, ishlab chiqarish binolarini) har chorakda ko'zdan kechirishni, shuningdek, Qarz oluvchi ishlarining joriy holatini aniqlashga qaratilgan qisqa og'zaki so'rov o'tkazishni o'z ichiga olgan harakatlarni tushunishga kelishib oldilar.

6.1.19. MMT Qarz oluvchining to'lov qobiliyatini tahlil qilish uchun unga har chorakda bir marta yozma so'rov yuborish orqali daromadlarni tasdiqlovchi hujjatlarni, joriy moliyaviy va xo'jalik ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlarni (hujjatlarni), shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni, shuningdek, ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini baholash uchun zarur bo'lgan boshqa moliyaviy va boshqaruv hujjatlarini talab qilishga haqlidir.

6.1.20. Ushbu Shartnoma bo'yicha garov ko'rinishidagi ta'minot mavjud bo'lganida, MMT garov predmetini ham taqdim etilgan hujjatlar bo'yicha, ham amalda – uning mavjudligi, sifati, texnik va jismoniy holati, shuningdek, saqlash va foydalanish shartlarini tekshirish (nazorat qilish) huquqiga ega.

6.1.21. Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajarguniga qadar garov mulkini begonalashtirishga "Garov reyestri" DUKda taqiq qo'yish.

6.1.22. MMT Qarz oluvchining rozilgisiz ushbu Shartnoma bo'yicha o'z huquq va/yoki majburiyatlarini istalgan uchinchi shaxsga o'tkazish (berish) huquqiga ega. Bunda MMT Qarz

oluvchini huquq va/yoki majburiyatlarni topshirishning tegishli sanasidan kamida 5 (besh) ish kuni oldin kutilayotgan topshirish haqida yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi.

6.1.23. Agar xabarnoma Qarz oluvchiga ushbu Shartnomada ko'rsatilgan manzil bo'yicha yoki ushbu Shartnomada nazarda tutilgan boshqa aloqa vositalari orqali yuborilgan bo'lsa, u MMT tomonidan tegishli tartibda yuborilgan hisoblanadi. Mazkur band talablariga muvofiq amalga oshirilgan huquq va/yoki majburiyatlarni topshirish Qarz oluvchi uchun majburiydir.

6.1.24. MMT Qarz oluvchini kreditni qaytarish jadvaliga muvofiq navbatdagi to'lovlar sanasi haqida oldindan xabardor qilishga haqli.

6.1.25. Agar Qarz oluvchi ushbu Shartnoma imzolangan kundan e'tiboran bir oy ichida kreditdan foydalanmasa, MMT bu haqda Qarz oluvchini yozma ravishda xabardor qilgan holda, ushbu Shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli.

6.1.26. MMT ushbu Shartnomada ko'rsatilgan har qanday huquq/talablardan o'z xohishiga ko'ra foydalanishi yoki foydalanmasligi mumkin. Ushbu huquq/talablardan foydalanmaslik yoki qisman foydalanish MMTning mazkur huquq/talablardan voz kechganini anglatmaydi va ulardan ushbu Shartnomaning amal qilish muddati davomida istalgan vaqtda foydalanish mumkin.

6.1.27. Qarz oluvchi ushbu shartnomada belgilangan shartlarni bajarmasa yoki lozim darajada bajarmasa, MMT ajratilgan kreditni muddatidan oldin undirib olish huquqiga ega.

6.1.28. MMT vijdonlilik, shaffoflik tamoyillariga muvofiq va amaldagi qonunchilik doirasida, ushbu Shartnomaning butun amal qilish muddati davomida Qarz oluvchining Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarish qobiliyatini nazorat qilish maqsadida uning faoliyatini tekshirish (nazorat qilish) huquqiga ega. Tomonlar tekshiruv deganda Qarz oluvchi o'z faoliyatida foydalanadigan obyektlarni (jumladan, agar mavjud bo'lsa, ofis, omborxona, ishlab chiqarish binolarini) har chorakda ko'zdan kechirishni, shuningdek, Qarz oluvchining ishlari joriy holatini aniqlashga qaratilgan qisqa og'zaki so'rov o'tkazishni o'z ichiga oladigan harakatlarni tushunishga kelishib oldilar.

6.1.29. MMT Qarz oluvchining to'lovga layoqatlilikini tahlil qilish uchun har chorakda bir marta yozma so'rov yuborish yo'li bilan daromadlarni tasdiqlovchi hujjatlarni, joriy moliyaviy va xo'jalik holati to'g'risidagi ma'lumotlarni (hujjatlarni), jumladan (lekin bular bilan cheklanmagan holda) buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni, shuningdek, ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlar ijrosini baholash uchun zarur bo'lgan boshqa moliyaviy va boshqaruv hujjatlarini so'rab olishga haqli.

6.1.30. Mazkur Shartnoma bo'yicha garov shaklidagi ta'minot mavjud bo'lgan taqdirda, MMT garov predmetini taqdim etilgan hujjatlar asosida ham, amalda ham – uning mavjudligi, sifati, texnik va jismoniy holati, shuningdek, saqlash va foydalanish sharoitlarini tekshirish (nazorat qilish) huquqiga ega.

6.2. MMT zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

6.2.1. Mazkur Shartnomaning 5-bo'limida belgilangan kreditni rasmiylashtirish bo'yicha majburiyatlar bajarilgan paytdan e'tiboran Qarz oluvchiga ushbu Shartnomada nazarda tutilgan shartlar va tartibda kredit taqdim etish.

6.2.2. Qarz oluvchi ushbu Shartnomaga muvofiq kredit bo'yicha qarz summasini to'lash majburiyatini to'liq bajarganida, Qarz oluvchining yozma yoki og'zaki so'roviga binoan tegishli organlarga kredit bo'yicha majburiyatlar bajarilganligi to'g'risida xat taqdim etish.

6.2.3. Mazkur Shartnoma bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlik yuzaga kelgan taqdirda, ushbu Shartnomada ko'rsatilgan telefon raqamiga SMS-xabar yuborish orqali Qarz oluvchini muddati o'tgan qarzдорlik vujudga kelgani va uning miqdori haqida xabardor qilish.

6.2.4. Kreditni qaytarish jadvali rasmiylashtirilgandan so'ng kredit bo'yicha moliyalashtirishning boshlanish muddatlari yoki Shartnomada nazarda tutilgan kredit shartnomasi shartlari (shu jumladan kreditning tarkibiy o'zgarishi) qayta ko'rib chiqilsa, yoxud qarz oluvchi kreditni qisman muddatidan oldin qaytargani sababli kredit bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish sanalari va muddatlari yoki oraliq to'lovlar miqdori o'zgarsa, kredit tashkiloti kreditni qaytarish jadvalini qayta rasmiylashtirishi va uni Qarz oluvchining manziliga pochta jo'natmasi yoki

elektron pochta orqali yuborib, qarz oluvchiga taqdim etishi shart.

6.2.5. Bunda kreditni qaytarishning yangi jadvali rasmiylashtirilgan paytdan boshlab, avval amal qilgan kreditni qaytarish jadvali o'z kuchini yo'qotadi.

6.3. Qarz oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

6.3.1. Kreditdan foydalanish to'g'risida ma'lumot olish.

6.3.2. Ushbu Shartnomada nazarda tutilgan hajmlarda, muddatlarda va shartlarda kredit berilishini talab qilish.

6.3.3. MMTning bo'lajak va muddati o'tgan to'lovlar haqida xabardor qiluvchi elektron xizmatlaridan foydalanish.

6.3.4. Kredit bo'yicha qarzni to'liq hajmda yoki qisman muddatidan oldin so'ndirish.

6.3.5. Kreditni so'ndirish uchun mablag'larni Banklarning mobil ilovasi orqali, bank o'tkazmasini amalga oshirish yo'li bilan, MMT yoki boshqa banklarning kassalari orqali yo'naltirish.

6.3.6. Shartnoma tuzilgandan so'ng, kredit pul mablag'lari berilgunga qadar, Shartnoma tuzilgan kundan boshlab 2 hafta ichida MMTni bu haqda yozma ravishda xabardor qilish orqali kredit olishdan bepul voz kechish.

6.4. Qarz oluvchi quyidagilarga majbur:

6.4.1. Ushbu Shartnoma shartlarida nazarda tutilgan to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish.

6.4.2. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlaydigan shartnoma(-lar)da nazarda tutilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarish. Ta'minot yo'qotilgan taqdirda, Qarz oluvchi unga teng qiymatli ta'minot taqdim etish majburiyatini oladi.

6.4.3. MMTdan mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq muddati o'tgan to'lovlar to'g'risida xabarnoma/talabnoma olingan kundan boshlab 5 kalendar kun ichida qarzдорlikni to'lash: muddati o'tgan barcha foizlar summasini, muddati o'tgan asosiy qarz summasini, shuningdek MMTning boshqa komissiyalarini to'lash.

6.4.4. Kredit olish uchun hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlar, jumladan, pasport ma'lumotlari, propiska, ro'yxatdan o'tgan joyi, haqiqiy yashash joyi, ish joyi, familiyasi, ismi, otasining ismi, uy, ish yoki mobil telefon raqamlari o'zgarganligi, shuningdek Qarz oluvchining mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar yuzaga kelganligi to'g'risida, shunday o'zgarishlar yoki holatlar yuzaga kelgan kundan e'tiboran 5 (besh) ish kuni ichida MMTni xabardor qilish hamda zarur hollarda MMT bilan kredit hujjatlariga qo'shimcha bitimlar imzolash. Qarz oluvchi ushbu bandeda ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi sababli xabarnomalarni olmaganligi yoki ularning uchinchi shaxslar tomonidan olinganligi uchun MMT javobgar bo'lmaydi.

6.4.5. Mablag'lar Banklarning mobil ilovasi, bank o'tkazmasi yoki MMT kassasi orqali asosiy qarzni muddatidan oldin so'ndirishga yo'naltirilgan taqdirda, Qarz oluvchi kreditni so'ndirish uchun mo'ljallangan hisobvaraqa to'lovni amalga oshirgandan so'ng, qarzni so'ndirganligi to'g'risida MMTni xabardor qilishi shart.

6.4.6. Ushbu Shartnomaga binoan Qarz oluvchi tegishli sug'urta mukofotlarini to'liq hajmda to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi va zarur bo'lganda, 5-bo'limga muvofiq MMT tomonidan qilingan xarajatlarni qoplaydi.

6.4.7. Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashishiga va ushbu Shartnomaga muvofiq MMT oldidagi o'z majburiyatlarini bajarmasligi va/yoki lozim darajada bajarmasligi xavfini yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan hech qanday majburiyatlarni olmaslik hamda hech qanday chora-tadbirlarni ko'rmaslik;

6.4.8. MMT nazorat funksiyalarini bajarishi uchun:

- MMT xodimlariga kredit olish uchun taqdim etilgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni har qanday manbalardan, shu jumladan yashash joyi, ish joyi va hokazolarga tashrif buyurish orqali tekshirish hamda qayta tekshirish imkoniyatini taqdim etish;

- o'z faoliyatida foydalaniladigan obyektlarni (jumladan, ofis, omborxona, ishlab chiqarish binolari mavjud bo'lganda) har chorakda ko'zdan kechirish, shuningdek, Qarz oluvchining

joriy holatini aniqlash maqsadida qisqa ogʻzaki soʻrov oʻtkazish imkoniyatini taʼminlash;

- Qarz oluvchining joriy toʻlovga layoqatlilikini tahlil qilish uchun har chorakda bir marta yozma soʻrov yuborish orqali daromadlarni tasdiqlovchi hujjatlarni, joriy moliyaviy va xoʻjalik ahvoli toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni (hujjatlarni), shu jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda: buxgalteriya balansi, foyda va zararlar toʻgʻrisidagi hisobotni, shuningdek, mazkur Shartnoma boʻyicha majburiyatlarning bajarilishini baholash uchun zarur boʻlgan boshqa moliyaviy va boshqaruv hujjatlarini talab qilib olish;

- MMTga toʻsquinlik qilmaslik va garov predmetining mavjudligi hamda saqlanish sharoitlarini tekshirish uchun barcha sharoitlarni yaratib berish, Qarz oluvchi tegishli soʻrovnomaning olgan kundan eʼtiboran 5 (besh) kalendar kun ichida garov predmeti boʻyicha MMT soʻragan barcha maʼlumotlarni taqdim etish;

- garov predmetining koʻzdan kechirilishini taʼminlash, mazkur Shartnoma doirasida berilgan kredit boʻyicha Monitoring dalolatnomalarini oʻz vaqtida imzolash;

- MMTning yozma soʻrovnomasiga asosan, ushbu soʻrovnoma olingan kundan eʼtiboran 5 (besh) kalendar kun ichida shaxsga doir, biografik yoki boshqa maʼlumotlarni taqdim etish;

6.4.9. - garov taʼminoti boʻyicha tegishli shartnomalarni/hujjatlarni ularda belgilangan muddatlarda tuzish/imzolash/rasmiylashtirish;

6.4.10. MMTning talabiga binoan quyidagi hollarda kredit qaytarilishining qoʻshimcha taʼminotini taqdim etish:

- Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashganda;
- kafilning moliyaviy ahvoli yomonlashganda (kafil mavjud boʻlsa);
- garov predmeti (predmetlari) va/yoki uning (ularning) bir qismi nobud boʻlganda, qiymati pasayganda, qisman yoki toʻliq yoʻqotilganda;
- kreditning qaytarilmaslik xavfini oshiradigan har qanday omillar yuzaga kelganda.

6.4.11. MMTning talabiga binoan, MMT tomonidan qilingan barcha xarajatlar va koʻrilgan zararlarni, shu jumladan kredit boʻyicha toʻlovlarni (asosiy qarz, foizlar va boshqa toʻlovlarni) majburiy va/yoki muddatidan oldin undirish choralari koʻrish bilan bogʻliq boʻlganlarini ham qoplash.

6.4.12. MMTga ushbu shartnomada va Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan har qanday huquqlarni amalga oshirishda toʻsquinlik qilmaslik;

6.4.13. Qarz oluvchi ushbu Shartnoma boʻyicha oʻz huquq va majburiyatlarini MMTning yozma roziligisiz boshqa shaxsga toʻliq yoki qisman oʻtkazishga haqli emas.

Qarz oluvchi kredit boʻyicha toʻlovlarni faqat ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshirish hamda MMT xodimlariga yoki boshqa shaxslarga naqd yoki naqdsiz shaklda toʻlov uchun pul mablagʻlarini taqdim etmaslik majburiyatini oladi. Agar toʻlov MMT xodimlariga yoki boshqa shaxslarga naqd yoki naqdsiz shaklda amalga oshirilgan boʻlsa (pul mablagʻlari kreditni soʻndirish uchun MMT hisobvaragʻiga yoʻnaltirilganligini tasdiqlovchi fiskal chek bundan mustasno), MMT Qarz oluvchi tomonidan toʻlangan summa uchun hech qanday javobgarlikni oʻz zimmasiga olmaydi.

7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. MMT Kredit boʻyicha qaytarilmagan mablagʻlarni, barcha hisoblangan foizlarni toʻlashni, shuningdek, Qarz oluvchi tomonidan MMTga yetkazilgan barcha yoʻqotish va zararlarning oʻrnini qoplashni talab qilishga haqli.

7.2. Qarz oluvchi ushbu Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni talabnomada koʻrsatilgan muddatdan boshlab 8 kun ichida bajarmasa, MMT oʻz xohishiga koʻra kredit boʻyicha qarzдорlikni muddatidan oldin undirish toʻgʻrisida sud buyrugʻini chiqarish haqida sudga murojaat qilishga yoki notariusning ijro yozuvi asosida undirishga haqli.

7.3. Tomonlarning ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qoʻllaniladi.

7.4. MMT yiliga olingan qarz miqdorining yarmidan koʻp boʻlmagan summada foizlar,

penya va neustoyka hisoblashga hamda undirishga, shuningdek, Qarz oluvchining qarz summasini qaytarishni amalga oshirish maqsadida MMT tomonidan qilingan barcha xarajatlarni, ko‘rilgan zarar va ziyonlarni Qarz oluvchidan qoplashni talab qilishga haqli.

7.5. Neustoyka to‘lash Tomonlarni o‘z zimmalariga yuklangan majburiyatlarni bajarishdan yoki yo‘l qo‘yilgan qoidabuzarliklarni bartaraf etishdan ozod qilmaydi.

7.6. Kredit bo‘yicha qarzдорlikni undirish to‘g‘risida sud qarori chiqarilganda, sud qarorida ko‘rsatilgan undiriladigan summaga nisbatan barcha foizlar va neustoykani hisoblash to‘xtatiladi.

7.7. Agar Qarz oluvchi kredit bo‘yicha asosiy qarzni uni to‘lash sanasigacha qaytarmasa, u MMTga asosiy qarz summasidan har bir kechiktirilgan kun uchun 1 (bir) foiz miqdorida, biroq muddati o‘tgan to‘lov summasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to‘laydi.

7.8. Agar MMT tomonidan qarzдорlik kechilsa, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini (JSHODS) to‘lash majburiyati Qarz oluvchi mustaqil ravishda bajarishni o‘z zimmasiga oladi.

8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

8.1. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan hollarda, tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladi.

8.2. Ushbu Shartnomadan kelib chiquvchi yoki u bilan bog‘liq bo‘lgan barcha nizolar, kelishmovchiliklar va e‘tirozlar, shu jumladan uning tuzilishi, o‘zgartirilishi, ijro etilishi, buzilishi, bekor qilinishi, to‘xtatilishi va haqiqiy emasligiga oid masalalar Tomonlar tomonidan ushbu Shartnomaning 8.4-bandida ko‘rsatilgan tartibda da‘vo arizalari yuborish yo‘li bilan hal qilinadi.

8.3. Da‘vo arizasi yuborilgan Tomon uni olgan kundan e‘tiboran 15 (o‘n besh) kun ichida unga javob berishi shart, ushbu Shartnomaning 11.6-bandida ko‘rsatilgan xabarnoma (da‘vo arizasi) yuborilgan hollar bundan mustasno.

8.4. Ushbu Shartnomadan yoki u munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha nizolar, kelishmovchiliklar, talablar yoki da‘volar, shu jumladan uning tuzilishi, o‘zgartirilishi, ijro etilishi, buzilishi, bekor qilinishi, amal qilishining to‘xtatilishi, haqiqiy emasligi, tuzilmagan deb topilishi yoki ushbu Shartnoma bo‘yicha ta‘minotning (to‘liq yoki qisman) qaytarilishi bilan bog‘liq masalalar Tomonlar tomonidan o‘zaro muzokaralar yo‘li bilan hal qilinadi.

8.5. Nizolarni muzokaralar yuritish yoki da‘vo arizalari/shikoyatlar/arizalar almashish yo‘li bilan hal etish imkoni bo‘lmagan taqdirda, da‘vo arizasi/shikoyati/arizasi rad etilgan (yoki qisman rad etilgan) yoxud belgilangan muddatda da‘vo arizasiga/shikoyatga/arizaga javob olmagan Tomon o‘z ixtiyoriga ko‘ra quyidagilarga murojaat qilishga haqli:

- "DS Legal Centre" MCHJ huzuridagi doimiy faoliyat yurituvchi hakamlik sudiga, bunda nizo ushbu hakamlik sudining Raisi tomonidan Hakamlik sudi Reglamentiga muvofiq ko‘rib chiqiladi; hakamlik sudining qarori qat’iy hisoblanadi va qayta ko‘rib chiqilishiga yo‘l qo‘yilmaydi;

- yoki O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda, shu jumladan, da‘vo ishini yuritish yoki sud buyrug‘i tartibida ish yuritish bilan cheklanmagan holda, fuqarolik ishlari bo‘yicha Mirzo Ulug‘bek tuman sudiga yoki fuqarolik ishlari bo‘yicha Farg‘ona tumanlararo sudiga murojaat qilish orqali;

- yoki O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda notariusning ijro yozuvini olish orqali.

Bunda Qarz oluvchi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan hollarda va tartibda MMT notariusning ijro yozuvini so‘zsiz tartibda amalga oshirish uchun murojaat qilish huquqiga ega ekanligini tan oladi va tasdiqlaydi.

9. FORS-MAJOR (YENGIB BO‘LMAS KUCH HOLATLARI)

9.1. Agar Tomonlar ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi ushbu Shartnoma tuzilgandan so‘ng yuzaga kelgan, Tomonlar oldindan ko‘ra bilmagan yoki oqilona choralar bilan bartaraf eta olmagan favqulodda

xususiyatga ega bo'lgan yengib bo'lmas kuch (fors-major) holatlari oqibatida yuz berganligini isbotlansa hamda o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarish uchun o'zlariga bog'liq bo'lgan barcha choralarni ko'rgan bo'lsalar, javobgar bo'lmaydilar. Fors-major holatlariga, xususan, quyidagilar kiradi: harbiy harakatlar, tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini va h.k.), pandemiya, davlat organlarining qarorlari.

9.2. Tomonlar fors-major holatlari yuzaga kelgan kundan e'tiboran 5 (besh) ish kuni ichida bu haqda bir-birlarini yozma ravishda xabardor qilishlari shart.

Yengib bo'lmas kuch (fors-major) holatlari yuzaga kelgan taqdirda, ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati bunday holatlar va ularning oqibatlari amal qiladigan davrga suriladi.

10. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA OID SHARTLAR.

10.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish chog'ida Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari quyidagilarga yo'l qo'ymaydi:

- har qanday noqonuniy imtiyozlar yoki boshqa g'ayriqonuniy maqsadlar va/yoki foyda olish uchun shaxslarning harakatlari yoki qarorlariga ta'sir o'tkazish maqsadida, har qanday shaxslarga bevosita yoki bilvosita biron-bir pul mablag'larini yoki moddiy boyliklarni to'lash, to'lashni taklif qilish va to'lashga ruxsat berish;

- qonunchilikda pora berish/olish, tijoratda poraga sotib olish sifatida malakalanadigan harakatlarni, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi amaldagi qonunchilik va xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlarni amalga oshirish.

10.2. Ushbu Shartnoma tomonlarining har biri boshqa tomonni (MMT xodimlarini) MMT xodimini muayyan qaramlikka soladigan va uni rag'batlantirayotgan tomon manfaati yo'lida biron-bir harakatni amalga oshirishini ta'minlashga qaratilgan har qanday usulda, jumladan, pul mablag'lari, sovg'alar berish, ular uchun ishlarni (xizmatlarni) bepul bajarish orqali rag'batlantirishdan voz kechadi.

10.3. Tomonlardan birida korrupsiya yoki firibgarlik holatlari yuz berganligi yoki yuz berishi mumkinligi to'g'risida shubha paydo bo'lgan taqdirda, tegishli Tomon boshqa Tomonni bu haqda yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi.

10.4. Xabardor qilingan Tomon korrupsiyaviy faoliyat amalga oshirilgani fakti tasdiqlanmaguncha, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turishga haqli.

10.5. Tomonlar pora berish/olish natijasida yoki pora berish/olish to'g'risida bila turib yolg'on ma'lumot berganlik uchun yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini oladilar.

10.6. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida tegishli Tomon MMT bilan o'zaro aloqadorligi va affillanganligi to'g'risida MMTga xabar berish majburiyatini oladi.

11. BOSHQA SHARTLAR

11.1. Qarz oluvchi MMT tomonidan Shartnoma shartlarini o'zining foydasiga, jumladan, foiz stavkasini o'zgartirish, kredit muddatini uzaytirish (prolongatsiya qilish) yoki kredit ta'tillarini berish (kredit ta'tillari yiliga faqat bir marta beriladi) orqali qayta ko'rib chiqilishiga o'z roziligini bildiradi. MMT ushbu o'zgarishlar to'g'risida Qarz oluvchini SMS-xabarnoma yoki elektron pochta orqali oldindan xabardor qiladi. Qarz oluvchi taklif etilgan o'zgarishlardan 3 (uch) bank kuni ichida voz kechishga haqli. Agar ko'rsatilgan muddatda MMT Qarz oluvchidan rad javobini olmasa, ushbu o'zgarishlar Qarz oluvchi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi va bajarilishi shart.

11.2. Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan hollarda, Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

11.3. Ushbu Shartnoma Tomonlar tomonidan imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi va Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha barcha majburiyatlarini to'liq bajargunlariga qadar

amal qiladi. Shartnoma kreditlash davrida amal qiladi va Qarz oluvchi o'z majburiyatlarini to'liq bajarganidan so'ng uning amal qilishi tugatiladi.

11.4. Qarz oluvchi vafot etgan taqdirda, uning barcha huquq va majburiyatlari qonunchilikda belgilangan tartibda merosxo'rlariga o'tadi.

11.5. Mazkur hujjat bilan Qarz oluvchi MMTga quyidagi harakatlarni amalga oshirish uchun chaqirib olinmaydigan va so'zsiz huquq hamda rozilik beradi:

- a) "Kredit-axborot tahliliy markazi" Kredit byurosiga va/yoki Banklararo kredit byurosiga Shartnoma shartlariga oid ma'lumotlarni taqdim etish (Kredit byurosiga va Garov reyestriga);
- b) Qarz oluvchining ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishi masalasida uning o'ziga, turmush o'rtog'iga, shuningdek, qarindoshlariga va ish beruvchilariga MMTga ma'lum bo'lgan manzillar (rekvizitlar) orqali telefon qo'ng'iroqlarini amalga oshirish, xatlar, elektron va SMS-xabarlar yuborish;
- c) Qarz oluvchining ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishi masalasida uning o'zi, turmush o'rtog'i, shuningdek, qarindoshlari va ish beruvchilari bilan muzokaralar (uchrashuvlar) o'tkazish;
- d) Ish beruvchilardan Qarz oluvchining daromadlari to'g'risida ma'lumot so'rab olish, ish beruvchilarga Qarz oluvchiga tegishli pul mablag'larini (ish haqi, nafaqa va boshqalar) kredit qarzini so'ndirishga yo'naltirish talabi bilan murojaat qilish;
- e) Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan shaxsga doir ma'lumotlarga qog'oz va/yoki elektron tashuvchilarda avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda va/yoki foydalanmasdan ishlov berishni, ya'ni yig'ish, yozib olish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), chiqarib olish, foydalanish, uzatish (taqdim etish, kirish imkoniyatini berish, shu jumladan shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishni uchinchi shaxslarga topshirish), egasizlantirish, bloklash, o'chirish, yo'q qilishni amalga oshirish, shu jumladan Qarz oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni MMTga, moliya institutlariga, ma'lumotlar bazalari operatorlariga taqdim etish uchun uzatish, shuningdek, moliya institutlari tomonidan davlat va nodavlat ma'lumotlar bazalaridan to'g'ridan-to'g'ri yoki uchinchi shaxslar orqali ma'lumot olish, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va xalqaro huquq (xalqaro shartnomalar) talablarini hisobga olgan holda shaxsga doir ma'lumotlarni umuMMTydalanishdagi manbalarda tarqatish;
- f) "Avtoso'ndirish" xizmatini ulashga.

Bunda MMT tomonidan yuqorida ko'rsatilgan harakatlarning amalga oshirilishi bank sirini oshkor etish deb hisoblanmaydi.

11.6. Tomonlarning bir-biriga yo'llaydigan da'volari (bildirishnomalari, xatlari va boshqa hujjatlari), agar ular yozma shaklda tuzilgan bo'lsa, Qarz oluvchi/MMT tomonidan imzolangan va ushbu Shartnomada ko'rsatilgan MMT/Qarz oluvchining manzillariga buyurtma pochta jo'natmasi orqali yuborilgan yoxud Qarz oluvchi/MMT tomonidan yetkazib berilib, imzo qo'ydirib topshirilgan yoki pochta yoxud faks orqali yuborilgan deb hisoblanadi.

Xabarnoma pochta bo'limi tomonidan pochta kvitansiyasiga sana qo'yilgan kundan, kuryer tomonidan yetkazib berilgan taqdirda — kuryer xabarnomani qabul qilib olgan kundan yoki xabarnoma faksimil aloqa yoxud Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali yuborilgan kundan boshlab jo'natilgan deb hisoblanadi. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan holatlar yuzaga kelganda, Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

MMT tomonidan yuborilgan har qanday xabarnoma, so'rov yoki boshqa xabar u jo'natilgan sanadan keyingi uchinchi taqvim kunida Qarz oluvchi tomonidan olingan deb hisoblanadi.

Qarz oluvchi tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha kredit olish jarayonida masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari yoki MMT tizimi orqali taqdim etilgan tasdiqlar va SMS-kodlar (OTP) yozma hujjatdagi imzo bilan teng yuridik kuchga ega.

Tomonlar raqamli shaklda tuzilgan hujjatlar Qarz oluvchi tomonidan imzolangan bosma hujjatlar bilan bir xil yuridik kuchga ega ekanligiga rozilik bildiradilar.

**12. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI, BANK REKVIZITLARI VA
IMZOLARI:**

MMT

“AGAT CREDIT” AJ MMT

Manzil: Toshkent sh., Mirzo Ulug‘bek tumani,
Buyuk Ipak Yo‘li ko‘chasi, 127a-uy

STIR: 304463924

“Trastbank” XAB Amaliyot boshqarmasi

MMT: 00491

H/r: 20216000900697563001

Tel.: (71) 205 80 20

E-mail: info@agatcredit.uz

F.I.Sh. _____

Lavozimi _____

Imzo _____

M.O‘.

QARZ OLUVCHI

F.I.Sh.: _____

Manzil: _____

Shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma’lumotlari:

Berildi: _____

_____y.

JSHSHIR: _____

Tel.: _____

plastik karta raqami _____

Shartnoma bilan tanishdim va unga roziman.

(Qarz oluvchining F.I.Sh. va imzosi)

Mikroqarz/mikrokredit/kredit taqdim etish to'g'risidagi(keraklisini tanlang) ____ ____ 20__ y. dagi
____ - ____-sonli Shartnomaga №1 ilova

Kreditni qaytarish jadvali / muddatli majburiyat

№	Qaytarish sanasi	Qoldiq kredit	Asosiy qarzni qaytarish jadvali	Foizlarni qaytarishning taxminiy jadvali	Jami qaytarish
1					
2					
3					
4					
5					
6					
7					
8					
9					
10					
11					
12					
Jami:					